

NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

*Komilova Tursunoy Rustamjon qizi
Andijon Davlat Chet tillar Instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lim muassasa talabalariga ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiya va interfaol metodlardan foydalangan holda ularni ingliz tili o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, innovatsion metodlar orqali darslarni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nofilologik ta'lim muassasalari, interaktiv ta'lim, object o'yini, Pictionary, charades o'yinlari, karusel metodi, skarabey metodi.

USE OF INNOVATION METHODS OF TEACHING ENGLISH IN NOPHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*Komilova Tursunoy Rustamjon qizi
Andijon State Foreign Languages Institute*

Abstract: This article aims to increase their interest in learning English by using modern technology and interactive methods in teaching English to students of a non-philological higher education institution, to effectively organize lessons through innovative methods.

Key words: non-philological educational institutions, interactive education, object, Pictionary, charades, merry go round, scarab method.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shuning uchun chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish borasida bir qancha ishlar olib borilyapti. Xususan, yosh kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida bir qator xayrli va ezgu ishlar amalga oshirilayapti.

Bizning mamlakatimizda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 1875-sonli va "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ 5117-sonli qarorlarni qabul qilinganligi chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish uchun olib borilayotgan ishlardan biridir.

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish

bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

“ Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko'pdir.

Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushuna olishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talab qilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarida chet tillari maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitiladi. Bunday ingliz tili maxsus nofilologik ta'lim muassasalarimiz uchun hali dastur va darsliklar ishlab chiqilmaganligi uchun o'zbek tilida o'qitiladigan bunday ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'zlari yo'nalishning xususiyatini hisobga olib, turli xil darsliklar, qo'llanmalarni tanlab foydalanmoqdalar.

Chet tilini o'qitishda endi an'anaviy dars metodlari o'rniga yangi AKTdan foydalangan holda interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishimiz lozim. Bu esa o'qituvchini o'z ustida yana ham ko'proq ishlashga to'g'ri keladi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir.

Interaktiv ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim . Bu ta'lim yuzma-yuz shakldagi darslarda yoki masofaviy shakldagi darslarda qo'llanilishi mumkin. Masofaviy darslarda interaktiv ta'limni qo'llash o'qituvchidan o'zini ustida ko'proq ishlashni, darsga oldindan puxta tayyorlanishni (prezentatsiyada kerakli mashqlar va topshiriqlarni jozibali tayyorlashni) talab etadi. Bunda kerakli platforma va internet ilovalarni (vebinar texnologiyalarni) to'g'ri tanlanishi va o'qituvchini ushbu yordamchi vositalardan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar:

OBJECT- bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, chet tili fanlarini o'rganishdagi eng muhim yo'nalish bu yangi so'zlarni yod olishdir. O'quvchilarning xarakterlarini hisobga olsak, har bir o'quvchi o'z usulida lug'at yodlaydi. Shunga ishonchimiz komilki, o'yinlar orqali yangi so'zlarni yodlash hammaga mos keladi va bu jarayonni yengillashtiradi.

Yuqorida aytib o'tgan o'yinimizda, dars paytida sinf xonadagi 15 ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi. Buyumlarning usti yopib qo'yiladi va so'ngra o'quvchilar ko'rgan narsalarini, ma'lum vaqt davomida inglizchasini doskaga yozishlari kerak. Eng ko'p so'zni to'g'ri yoza olgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Shu o'yinning sifatini ta'minlash maqsadida shuni ayta olamanki, shu vaziyatning o'zida qolgan, ishtirok etmagan o'quvchilarni ham darsga jalb qilish uchun, ularga shu buyum nomlariga bittadan gap tuzish toshirig'i berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va bu befarqlikning oldini ham oladi.

Pictionary - ko'pchilik ingliz tili fanini o'rgatuvchi va o'rganuvchilar uchun bu o'yin tanishdir, ya'ni o'z nomi bilan so'z o'yini va unda rasm chiziladi. Bu o'yinda rasm chizish uchun oddiy doskadan yoki magnit doskadan foydalanish mumkin. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadilar va har bir jamoa uchun doskaning ikki tarafiga jadval chiziladi. Jamoalarning ballari shu jadvallarga yozib boriladi. Parta ustiga so'z nomlari yozib qo'yiladi va teskari qilib o'giriladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbatma-navbat chiqib, yashiringan so'zlar orasidan birini tanlab, doskaga chizib beradi. Qaysi jamoa birinchi topsa shu jamoaga ball beriladi. Bu o'yin ham o'quvchilar zehnini charxlaydi.

Charades o'yini Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilariz sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Ularni uyg'oting va harakatlantiring!

O'quvchilar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qilib qirqilgan qog'ozlarga so'zlar yozing. Fe'llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo'lsada hamma o'quvchilar biladigan so'zlardan foydalanishingiz mumkin. Sinfni ikki jamoaga bo'ling. Va har bir jamoadan bir o'quvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi.

Sezgi a'zolar orqali o'rganish (sabzavot, mevalar, oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, turli xil buyumlarni ushlab ko'rish, gullarni hidlab ko'rish). Ushbu yangi metodni o'rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak" .

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham

aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

"Karusel" ("Merry Go Round") Ushbu texnika xayoliy fikrlash, xotiradan foydalanishga imkon beradi. Birinchi talaba o'qituvchidan kartani oladi va shu so'z bilan assotsiatsiyalarni nomlaydi. Karta o'qituvchiga qaytguncha zanjir bo'ylab uzatiladi. Har bir talaba o'z fikrlarini tez sur'atlarda ifoda etish imkoniyatiga ega. Ushbu bosqichda talabalar o'tgan materialni "eslab qolishadi".

Gapirish qobiliyatini rivojlantirish uchun dars davomida **"Intellectual isinish"** tamoyilidan foydalanish mumkin. Qoida tariqasida, bunday mashqlarning leksik tayanchlari doskada, ayniqsa dastlabki bosqichda joylashgan.

"Skarabey" metodi. "Skarabey" ("Qo'ng'iz") strategiyasi talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Talaba strategiyani qo'llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko'lamini aniqlash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Strategiya, shuningdek, turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi. Uning yordamida talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe'llik, o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; o'z-o'zini baholash.

Strategiyadan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J., Maxkamova G.T., Ashurov Sh. Ingliz tilini o'qitish metodikasi (nazariya va amaliyot). – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
2. O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent-2003